

O'ZBEK XALQI QALBIDAN CHUQUR O'RIN EGALLAGAN  
RUS SHOIRI - ALEKSANDR FAYNBERG

*Rashidova Ruxshonaxon Rustamjon qizi*

*rashidovaruhshona81@gmail.com*

*O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti*

*Xorijiy til va adabiyot fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Aleksandr Faynbergning adabiyotimizga qo'shgan ulkan hissasi yoritiladi. Uning she'riyatidagi falsafiy teranlik, insoniylik va milliy qadriyatlarga bo'lgan hurmati tahlil qilinadi. Faynbergning o'zbek adabiyotiga bo'lgan muhabbati nafaqat she'rlari, balki tarjimalari va ssenariy ijodi orqali ham namoyon bo'lib, u o'zbek adabiyoti va madaniyatining xalqaro miqyosda tanilishiga katta hissa qo'shgan ijodkordir.

**Kalit so'zlar:** Aleksandr Faynberg, adabiyot, she'riyat, tarjima, madaniy aloqalar, o'zbek adabiyoti, san'at, falsafiy teranlik, insoniylik, ijod.

Adabiyot shunday bir dengizki, unda daryolarning qudrati, ummonlarning teranligi bor; shunday bir chamanzorki, unda xushbo'y ifor taratgan gullar, hali ochimagan gunchalarning tarovati bor; shunday bir oltin ko'priki, u xalqni birlashtirib, do'stlik rishtalarini mustahkamlaydi. Zero, adabiyotning tili bitta, san'at tilidir. Adabiyot tarixida shunday ijodkorlar yashab o'tganki, ular garchi boshqa millat vakili bo'lsa-da, ijodi orqali o'zbek xalqini dardini, ruhini kuylagan, adabiyotimizni jahonga targ'ib qilishda mislsiz jonbozlik korsatgan, ana shunday buyuk insonlardan biri O'zbekistonning Rossiya Federatsiyasi bilan madaniy aloqalarini rivojlantirishga qo'shgan ulkan hissasi uchun pushkin medali bilan tadirlangan, o'zining yoniq she'riyati bilan adabiyotimiz osmonida o'chmas iz qoldirgan O'zbekiston xalq shoiri Aleksandr Faynberg edi[1]. She'rlarida rang-baranglik, falsafiy teranlik tuyg'ulari yorqin aks ettirib bera olgan shoirning ijodi keng ko'lamlil va sermahsul hisoblanadi. Shoir so'zni chuqur his etadi, bu hisga o'quvchini ham hamroh qiladi. U O'zbekistonda yashadi, ijod qildi, bu yurtning havosi, osmoni, tuprog'i, eli bir so'z bilan aytganda butun borligi shoirga she'r qadar, qalb qadar aziz bo'lib ulgurgan edi. Shoir o'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan, o'zining betakror asarlarida el-u yurtimizni yuksak badiiy mahorat bilan tarannum etgan noyob iste'dod egalaridan biri edi. Shoir o'zidan o'chmas va tunganmas asarlarini meros qilib qoldirdi. Uning she'riyatidagi jozibasi juda turlicha fe'l-atvor, qarashlar va turli yoshdagi odamlarning qalbini zabt etdi. Aleksandr Faynberg ijodi istiqlol ruhi maqsadlari bilan yog'ringarligi, millat manfaati uchun xizmat qilganligini anglatadi. Shunday og'ir davrda O'zbekistonning, o'zbek xalqining matonati va mehribonligini takror takror madh etadi.

U paytda hamma o'z jonini qutqarishni o'ylar, lekin odamgarchiligi baland o'zbeklar boshiga musibat tushgan millatlarni o'z bag'riga olib, boshini silaganini she'rlarida cheksiz minnatdorlik tuyg'usini qaynoq mehr bilan e'tirof etdi. O'zining yeb turgan nonini boshqalar bilan baham ko'rgan, madadga muhtojlarning jonini saqlab qolgan millatga boshi yerga tekkudek ta'zim qilib, rahmat aytdi. Shoir bor vujudi bilan his qilgan tuyg'ularini qog'ozga tushirdi va oz tuyg'ularini kitobxonlar bilan baham ko'rdi. Asarlari orqali bugungi yoshlarimizni ham milliyligimizga, o'zligimizga sodiq qolgan holda yashashga undaydi.

Ishonch biral, muhabat birla  
Suhbatlasha olmaymiz ro'yrost.  
Ikkimizda hamma narsa bor,  
Faqatgina umid yo'q, xolos.

Ushbu she'rni ko'zlar bilan o'qigan inson unda faqat harflar tizimini ko'ra oladi, lekin yuragi insoniy tuyg'ular bilan urayotga kishiga esa bu muhabbat kuyi, ishq zarrasining sochmalaridir, Faynberg ham o'z ijodi bog'iga mehr daraxtlarini qadriyatlar tuprog'iga ekanan shoirdir[2]. Qalam olishga majbur qilgan narsa ham aslida odamlarning o'zaro mehr-muhabbati masalasidir, uning she'rlari insonni sevishga, do'stlik tomon qadam tashlashga, mehribon bo'lishga o'rgatadi. U birgina shoir hisoblanmasdan, balki rejissiyor, yozuvchi, tarjimon kabi san'atning boshqa turli yo'nalishlariga ham qadam bosgandir. Navoiy g'azallari, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjon kabi shoirlarning she'rlarini rus tiliga tarjima qilib, o'zbek tilning nafis imkoniyatlari va qudratini yoyishga hissa qo'shdi. Albatta, Faynberg ijodi ham xalqimiz yuragidan alohida o'rin egallagan va shu sababli "Pushkin", "O'zbekiston xalq shoiri", "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" kabi yuksak unvonlarga sazovor bo'lgan[3].

Faynberg she'riy ijodida o'tmish bilan hozirgi kun, G'arb va Sharq madaniyati, qadriyatlari va an'analarini uyg'unlashtirib, o'ziga xos badiiy olamni vujudga keltiradi. Bolaligi Ikkinchi jahon urushining og'ir yillarida kechgan Faynbergning lirik qahramoni tarixiy-ijtimoiy notinchlik paytida insoniylik tushunchasini yo'qotmagan, o'zgaga mehr-shafqat va madad qo'lini uzatishga tayyor, mamlakatda sodir bo'layotgan xavotirli voqea va hodisalardan iztirob chekuvchi insondir. Badiiy tarjima Aleksandr Faynbergning asosiy qismini tashkil qilgan. O'zbek she'riyatini mukammal bilgan shoir Alisher Navoiy g'azallarini 10 jildda nashr etishga katta hissa qo'shdi[4]. Bundan tashqari, ajoyib tarjimon Faynberg rusiyzabon o'quvchilarga taniqli o'zbek shoirlarining ko'plab asarlarini ochib bera oldi. Moskvada Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostoni, Toshkentda esa "Oqqushlar galasi" to'plami shuningdek, Abdulla Aripov, Xosiyat Rustamova, Sirojiddin Said va Omon Matchon she'rlarining tarjimalari nashr etilgan. Shunisi e'tiborga loyiqki, shoirning she'rlari ham o'zbek tiliga tarjima qilingan va "Chig'ir" to'plamida nashr etilgan. Bundan tashqari, Erkin

Vohidovning “Ruhlar isyoni” va Abdulla Oripovning she`riy to`plamlarini rus tiliga tarjima qilgan. Ijodkor ssenariyavislik bo`yicha ham sermahsul ijod qilgan[5]. Misol tariqasida, “O`zbekfilm” kinostudiyasida Faynberg ssenariysi asosida suratga olingan “Mening akam”, “Jazirama oftob tagida”, ”Qandahorda toblanganlar”, va “Tojikfilm” kinostudiyasida esa “Jinoyatchi va oqlovchilar” va boshqalarni ko`rsatishimiz mumkin. Faynbergning ssenariysi asosida 1999-yilda “Osmondagi stadion” filmi suratga olingan. Ushbu film “Paxtakor “ futbol jamoasining avtohalokatda halok bo`lganiga 20 yil bo`lgani munosabati bilan kino tasmlarga muhrlangan. Shuningdek, 1997- yilda suratga olingan “Issiq quyosh ostidagi uy” filmining ham ssenariy muallifi hisoblanadi.

Aleksandr Faynberg o`zbeklarni shu qadar sevardiki, uning xarakteriga o`zbekona tuyg`ular ko`chgan edi,—deydi Qoraqalpog`iston xalq shoiri Rustam Musurmon.—Toshkent tabiati, insonlarining samimiyati haqida to`lqinlanib yozardi. U chin ma`noda go`zal xulq egasi edi. She`rlarida ham buni ifoda etardi. G`amxo`r, mehribon, haqiqatparast edi. Yolg`on gapni hazm qilolmas edi, xiyonatni kechirmasdi. Uning she`rlarini o`zbek tiliga o`girish baxtiga muyassar bo`lganman. Shoirdan ko`p narsa o`rganganman. Faynberg so`zni sevgan[6]. Biz bunda undan o`rnak olsak bo`ladi. Kartina orqali shoir hayot yo`liga jiddiy nazar tashlanibdi. Tomoshabin sifatida bu meni quvontirdi. Faynberg xotirasini abadiylashtirish maqsadida prezidentimiz tashabbusi bilan yangidan bunyod etilgan adiblar xiyobonida mumtoz va zamonaviy adiblarning ulug` namoyondalari qatorida Aleksandr Faynberg haykali ham o`rnatildi. Aleksandr Faynberg o`zbek she`riyatining eng ko`zga ko`ringan namoyondalaridan biri ekanligi shubhasiz. Uning ismi va ishi butun o`zbek muhlislari va shoirlari orasida o`zgarmasdir. Aleksandr Faynbergning mumtoz she`riyatining mumtoz an`analari, O`zbekiston zaminiga mehr-muhabbat tuyg`ulari singdirilgan beqiyos va noyob asari adabiyotimiz tarixida alohida sahifadir. Aleksandr Faynbergning tilidan yoki millatidan qat`iy nazar, O`zbekistondagi barcha adabiyot ixlosmandlari yaxshi bilishadi va hurmat qilishadi. Shoir ijodi keng ko`lamli va sermahsul. Uning she`rlarida rang-baranglik, falsafiy teranlik tuyg`ulari yorqin aks etib turadi. Shoir so`zni chuqur his etadi, bu hisga o`quvchini ham hamroh qiladi. U O`zbekistonda yashadi, ijod qildi, bu yurtning havosi, osmoni, tuprog`i, eli bir og`iz bilan aytganda butun borlig`i shoirga she`r qadar, qalb qadar aziz bo`lib ulgurgan edi. Shoir o`zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo`shgan o`zining betakror asarlarida el-u yutimizni yuksak badiiy mahorat bilan tarannum etgan noyob iste`dod egalaridan biri edi. Shoir o`zidan o`chmas iz va tuganmas asarlarini meros qilib qoldirdi. Uning she`riyatdagi jozibasi juda turlicha fel-atvor, qarashlar va turli yoshdagi odamlarning qalbini zabt etdi. Aleksandr Faynberg ijodi istiqlol ruhi maqsadlari bilan yog`inganlagi, millat manfaati uchun xizmat qilganini anglatadi. Uning ijodi inson qalbini, hayot haqiqatlarini chuqur anglashga yordam beradigan

asarlardan iborat. Bugungi kunda ham uning she'rlari muxlisalari qalbida yashab kelmoqda va yosh ijodkorlar uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Shoir ijodi qalbimizda doim barhayotdir!

Aleksandr Faynberg ijodi o'zbek adabiyotida o'chmas iz qoldirdi. Uning she'rlari insoniy tuyg'ularni aks ettirishi, millat va madaniyatga bo'lgan sadoqatni ulug'lashi bilan ajralib turadi. Shoir tarjimon sifatida ham o'zbek she'riyatining nafisligini butun dunyoga yoyishga xizmat qildi. Faynberg she'riyati bugungi yoshlar uchun ham ilhom manbai bo'lib qolmoqda. Uning asarlari insoniylikni, mehr-muhabbatni va milliy qadriyatlarni qadrlashga undaydi. Shoirning nomi va ijodi o'zbek madaniyatida abadiy yashaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://yuz.uz/uz/news/aleksandr-faynbergning-yorqin-xotirasi>
2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr\\_Faynberg](https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg)
3. <https://arboblarni.uz/uz/people/faynberg-aleksandr-arkadevich>
4. <https://arboblarni.uz/uz/people/faynberg-aleksandr-arkadevich>
5. Meliqo'ziyeva Z. (aprel 2023). O'zbek va rus yozuvchisi Aleksandr Arkadevich Faynberg hayoti, ijodining bugungi kundagi ahamiyati. *Scientific Impulse*, 1(9), 770–772.
6. O'ralov U. (dekabr 2022). O'zbek xalqining chin do'sti, tarjimon va shoir – Aleksandr Faynberg. *Pedagog* (4), 745-747.